

RAQAMLI JAMIYATDA FALSAFIY FANLARNI O'RGANISHDAGI YANGI IMKONIYATLAR

M.M.Allayarova

Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya. Maqolada raqamli jamiyat sharoitida falsafiy fanlarni o'rganish va tadqiq etishdagi yangi imkoniyatlar tahlil qilingan. Raqamli ta'lim muhiti, elektron platformalar va sun'iy intellektning falsafiy bilim rivojiga ta'siri ochib berilgan. Shuningdek, raqamli jamiyat tomonidan falsafa oldiga qo'yilayotgan yangi muammolar va fanlararo integratsiya masalalari ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: raqamli jamiyat, falsafa, raqamli ta'lim, sun'iy intellekt, axborot etikasi, fanlararo integratsiya.

Abstract. The article analyzes new opportunities for studying and researching philosophy in the context of a digital society. The impact of digital educational environments, online platforms, and artificial intelligence on philosophical knowledge development is revealed. Additionally, the article examines new philosophical problems posed by the digital society and issues of interdisciplinary integration from a scientific and theoretical perspective.

Keywords: digital society, philosophy, digital education, artificial intelligence, information ethics, interdisciplinary integration.

Annotatsiya. В статье анализируются новые возможности изучения и исследования философии в условиях цифрового общества. Рассматривается влияние цифровых образовательных сред, онлайн-платформ и искусственного интеллекта на развитие философских знаний. Также освещаются новые философские проблемы, возникающие в цифровом обществе, и вопросы междисциплинарной интеграции.

Ключевые слова: цифровое общество, философия, цифровое образование, искусственный интеллект, информационная этика, междисциплинарная интеграция.

Raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayon falsafiy fanlarni o'rganish usullari va metodologiyasini yangilashni talab qiladi. Raqamli jamiyatda falsafa inson, jamiyat va texnologiya o'rtasidagi murakkab munosabatlarni anglashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. "Biz hozir «axborot inqilobi»ning o'rtasida turibmiz. Insonzoti Bronza davridan boshlab axborot jamiyatida yashab kelmoqda, ammo so'nggi paytlarda hayotimizning shu qadar ko'p qismi ma'lumotning hayot sikllarini boshqarishga bog'liq bo'lib qoldi.", deb baholaydi xorijlik tadqiqotchisi olim Luciano Floridi, [1:3]

Texnikaning asrlar mobaynida rivojlanishi va takomillashuvi natijasida XXI asrga kelib yuqori texnologiyalarning rivojlanish bosqichi yuzaga keldi va u o'ziga xos xususiyatlar va yo'nalishlarda namoyon bo'lmoqda. "Yuqori texnologiyalar eng ko'p ilmiy talabga ega bo'lgan tarmoqlar: o'z mikroelektronika, kompyuter

muhandisligi, atom energiyasi, mikrobiologik sanoat va boshqa shu kabilarni o‘z ichiga oladi”, deb izohlaydi faylasuf olim J.Yaxshilikov.[2:119] Bugungi kunda informatsiya-axborotning tezligi va miqyosiyligi texnologiyalarning yanada takomillashuvi yuzaga keltirib, insoniyatni shoshirib qo‘yishi bilan birga, uni qabul qilishi va qayta ishlashiga yanada ko‘p kuch sarflashi kerak bo‘lmoqda, informatsiyalarni olish va uni o‘z miyasida qayta ishlash, xotirada saqlab qolishi, hazm qilishi oson emas. Shuning uchun ham ma’lumotlarni izlab topish, aniq faktlarga asoslanishda kerakli ma’lumotlar olish raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshirish imkoniyatlari yo‘lga qo‘yilishi davr talabi bo‘lib qolmoqda. Bu ko‘p soha va tarmoqlarning barqaror rivojlanishi, yangiliklar va innovatsiyalarni yaratishga olib keladi. Xususan, xorijlik olim Kastellsning fikriga ko‘ra “tarixiy tendensiya sifatida axborot zamonidagi asosiy funksiyalar va jarayonlar barqarorlik bilan tarmoqlar atrofida tashkil topmoqda. Tarmoqlar jamiyatimizda yangi ijtimoiy morfologiyani tashkil etadi...” [3:500]

Raqamli texnologiyalarni rivojlanishi sun‘iy intellektni paydo bo‘lishi va uning insoniyat hayotiga kirib kelishi insoniyat uchun intellektual qobiliyatini oshirishga yaxshi imkoniyat bo‘ldi. Lekin uning maqsadi insoniyat maqsadidan farq qilishini unutmashimiz lozim. “Superintellekt inson aqlidan yuqori intellektual qobiliyatlarga ega mashina paydo bo‘lganda, uning maqsadlari va xulq-atvori inson maqsadlaridan keskin farq qiladi.”,-xorijlik olim N.Bostrom [4:46]. Shuningdek aytilish lozimki, inson dunyoqarashi, maqsadi va manfaatlarida ham o‘zgarishlar yuzaga keladi. Bu haqda S.Turkle o‘zining “Alone Together” kitobida “*Technology doesn’t just change what we do; it changes who we are.*” — ya’ni “Texnologiya faqat nima qilayotganimizni emas, kim ekanimizni ham o‘zgartiradi.”[5:86] Lekin insoniyat jamiyati texnologiyalarni yuqori darajasiga intilib o‘ziga qulay, intellektual kuchli bilim va manbalarga ehtiyoj sezib yashaydi. N.Negroponte ta’kidlaganidek:“Eventually, we will move toward an entirely digital society...” - ya’ni “Oxirida biz to‘liq raqamli jamiyatga o‘tamiz...” [6:49]

Raqamli texnologiyalar raqamli jamiyatning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Ayniqsa ta’lim sohasida Onlayn ta’lim platformalari, elektron darsliklar va virtual ma’ruzalar falsafiy fanlarni keng auditoriyaga etkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Virtual seminarlar va onlayn muhokamalar talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Falsafiy tadqiqotlarda olib borishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlar kengayib raqamlashtirilgan kutubxonalar va elektron arxivlar tadqiqot manba bazasi sifatida kengaytirmoqda. Korpusli tahlil va semantik tahlil usullari falsafiy matnlarni chuqurroq o‘rganish imkonini beradi. Kastellsning fikriga ko‘ra “*Raqamli asrda kommunikatsiya texnologiyalarining doimiy transformatsiyasi kommunikatsiya vositalarini ijtimoiy hayotning barcha sohalariga kengaytirmoqda...*” [3:238–266].

Raqamli jamiyatda falsafiy fanlar tarmog‘ida yangi tadqiqot ob’ektlari paydo bo‘lib bormoqda: sun‘iy intellekt ongi, raqamli identichlik, virtual reallik ontologiyasi, axborot xavfsizligi va texnologiya etikasi va boshqalar. Bu masalalar

inson qadr-qimmatini va ma'naviy me'yorlar nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega.

Raqamli jamiyat rivoji va fanlararo integratsiyada falsafaning roli katta. Falsafa texnika, ijtimoiy va gumanitar fanlar bilan integratsiyada zamonaviy ilm-fan tizimida metodologik asos vazifasini bajaradi. Sun'iy intellekt etikasi, axborot etikasi, raqamli madaniyat va axborot siyosati kabi sohalarda falsafiy tahlil muhim ahamiyatga ega bo'lib u raqamli jamiyat sharoitida nafaqat nazariy bilim sifatida, balki zamonaviy jamiyat muammolarini tushunishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni "Raqamli gumanitar fanlarning ta'rifi hisoblash usullari va metodlarining an'anaviy gumanitar izlanishlarni transformatsiyasini ko'rsatadi." [8:p.7]

Raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalari falsafiy tadqiqotlarda yangi metodologik yo'nalishlarni ochmoqda, masalan: matnlarni korpusli tahlil qilish, semantik tahlil, virtual muhitda etik va ontologik masalalarni tadqiq etish. Shu bilan birga, fanlararo integratsiya orqali murakkab ijtimoiy, texnik va gumanitar muammolarni kompleks ravishda tahlil qilish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Bu jarayon falsafiy fanlarni zamonaviy jamiyatdagi qarorlar qabul qilish va axborot munosabatlarini baholashda muhim vositaga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli jamiyat falsafiy fanlarni o'rganish va tadqiq etishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamli texnologiyalar falsafiy bilimni o'zlashtirishni osonlashtirib, uni zamonaviy jamiyat muammolarini anglashda muhim intellektual vositaga aylantirmoqda

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Floridi, L. The Philosophy of Information. Oxford University Press, 2010, p. 3.
2. Yaxshilikov J.J. Texnika va informatsion texnologiyalar falsafasi. Darslik., Samarqand, 2019., 109-bet.
3. Castells, M. The Rise of the Network Society. Wiley-Blackwell, 2011., p.500.
4. Bostrom, N. Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies. Oxford University Press, 2014. P-42.
5. Turkle, S. Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. Basic Books, 2011.
6. Negroponte, N. Being Digital. Vintage, 1996.,p.49.
7. Castells, M. The Rise of the Network Society. Wiley-Blackwell, 2011., p.238-266.
8. Berry, D. M. Understanding Digital Humanities. Palgrave Macmillan, 2012., p.7.